

## LANGAR OTA ZIYORATGOHI

**F.Xayitova** *TDPU T.f.f.d. dotsent v.b.*

**L.Eshmurodov** *TDPU talabasi.*

Qashqadaryo vohasida Langarota nomi bilan ataladigan ziyoratgohlari asosan, Qamashi va Chiroqchi tumanlarida uchraydi. Qo'shni Tojikiston Respublikasida ham Langar ota nomli ziyoratgoh mavjud. Viloyatning Qamashi tumani Langar qishlog'ida Langar ota masjidi va Shayx Abulhasan maqbarasi mavjud bo'lib, dengiz sathidan 1000 metr balandlikda barpo etilgan.

Manbalarda turlicha yoziladigan "langar" atamasi ko'proq muvozanatni saqlash va harakatni bir maromda tutib turish ma'nosini anglatishi izohlanadi. Ba'zi rivoyatlarda islom dinida so'fiylar va darveshlar langar tashlash orqali joylashadigan yerlarini aniqlagani, shuningdek, ushbu atama mo'g'ulcha "lango'r" – qabr, ya'ni eng katta avliyoning qabri yoki boshqacha ta'rifda musofirxona, xayr-ehson tarqatiladigan joy, aziz-avliyolar langar tashlagan makon kabi ma'nolarni anglatadi.

"Langar" atamasi to'g'risida boshqa fikrlar ham mavjud bo'lib, u tarixiy shaxs emas, joy nomi bilan ataladigan markaz, qal'a, qo'rg'on, bandargoh so'zlariga qiyoslanadi va mahalliy aholi tomonidan aytilgan rivoyatlarga qiyoslaydigan bo'lsak, ko'proq bandargoh ma'nosi keltiriladi. Aytishlaricha, ilgari har ikkala joydagi daryolar nihoyatda sersuv bo'lib, hatto kemalar qatnagan ekan. Langar qishloqlari esa kemalar to'xtaydigan, aniqrog'i, langar tashlanadigan joy bo'lgan bo'lishi ham ehtimol. Izlanishlar davomida guvohi bo'lindiki, Chiroqchi tumanidagi axborotchilarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, "langar" so'zi "dor ustida muvozanatni saqlaydigan tayoq" ma'nosida ham qo'llaniladi. Shuningdek lang so'zi katta ma'nosida ham ifodalaniladi. Masalan, "darvoza lang ochiq" iborasi Qashqadaryo vohasi aholisi tomonidan keng qo'llaniladi.

Qamashi tumani Qiziltepa qishlog'idan 25–30 kilometr olislikda, Hisor tog' tizmalari oralig'ida joylashgan Langar ota ziyoratgohi qadimiy xonaqoh-maqbaralar sirasiga kiradi. Taxminan 1520 yillarda bunyod etilgan, o'rta asrlar Markaziy Osiyo me'morchiligining noyob namunasi bo'lgan ushbu majmuada tasavvuf ta'limotining yirik vakillari abadiy qo'nim topgan.

Langar ota maqbarasi bunyod etilguniga qadar uning o'rnida avval ham qandaydir dahma mavjud bo'lgan. Rivoyat qilinishicha, maqbaraning qurilishi shayx Abul Hasan Ishqiyning o'g'li shayx Muhammad Sodiq nomi bilan bog'liq. Maqbaraning ichida beshta qabr mavjud bo'lib, ulardan uchtasi o'z o'lchami

va qo'yilgan yodgorlik toshlari bilan alohida ajralib turadi. Toshlar sirtiga mohirlik bilan arab imlosida yozuvlar bitilgan. Maqbara ichidagi qabrlarning joylashishi ham o'ziga xos. Shayxlar xonadoniga mansub bo'lmasa-da, ijtimoiy mavqei bilan yuqori lavozimlardan birini egallagan Amirbek Sodiq ibn Bahodirning qabri shayx Muhammad Sodiq qabrining janubiy qismi, ya'ni uning oyoq uchi tomonida joylashgan.

Mahalliy aholining qayd etishicha, Langar ota maqbarasiga tasavvuf ta'limotining ishqiya tariqati shayxlari Abul Hasan Ishqiy, uning o'g'li shayxzoda Muhammad Sodiq va nevarasi Abul Hasan Oxund dafn etilgan. Shuningdek, o'rta asr muarrixi Ibn Havqal mazkur qishloq hududi qadimda Kesh viloyatiga bo'ysunuvchi Siyam tumaniga qarashli ekanligi, tumanning nomi, ayniqsa, milodiy 776 yildan so'ng juda mashhur bo'lgani haqida ma'lumot beradi. Dalillardan Langar qishlog'i tarixi uzoq asrlarga borib taqalishi ma'lum bo'ldi. Bu yerda olib borilgan arxeologik qazishma ishlari paytida Somoniylar davriga oid g'ishtlar topilganligi ushbu manzilgoh yuqoridagi sulola hukmronligi davrida ham faoliyat ko'rsatganligini isbotlaydi.

Maqbaraning shimoliy tomonida, chamasi 400–500 metr masofadagi alohida balandlikda yana bir tarixiy inshoot saqlanib qolgan. Masjid ekanligi aytiladigan ushbu obida hamda maqbaraning sathi va balandligi bir-biriga mos tushishi o'sha davr me'morlarining yuksak mahoratidan darak beradi. Masjidda arabiy yozuvning ko'fiy usulida bitilgan qadimiy Qur'on nusxasi saqlangan. Ushbu muqaddas kitob jayron terisiga bitilgan bo'lib, uning hozirda o'n uch varag'i saqlanib qolgan, xolos. Ushbu kitob ustida tadqiqot olib borgan Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik instituti professori Rizvonning aniqlashicha, Langar masjididagi Qur'onning boshqa varaqlari turli sabablarga ko'ra xorijiy mamlakatlarga olib ketilgan. Professor Rizvon katta mashaqqatlar bilan Langar Qur'onining yetishmaydigan varaqlarini turli mamlakatlardan topishga muvaffaq bo'lgan va ularning fotonusxalarini olgan, so'ngra yaxlit holatga keltirib, Langar masjidiga sovg'a qilgan.

Fikrimizcha, Qamashi va Chiroqchi tumanlaridagi hamda qo'shni Tojikiston respublikasidagi Langar ziyoratgohlarida qo'llanilgan Langar so'zi bir asosga ega. Mahalliy aholining fikricha, Langar ota ziyoratgohiga 63 ta avliyo dafn etilgan. Axborotchilarning bergan ma'lumotiga ko'ra, yuqori Qashqadaryo hududida yashagan shayxlar, avliyo va ulamolarning aksariyati Langar ota qabristonidan abadiy qo'nim topgan. Shunday avliyolardan biri Forsa bobo karomat sohibi bo'lib, kelayotgan selni qaytarib, odamlar hayotini asrab qolganligi haqida rivoyatlar mavjud. Langar ota nomi bilan bog'liq muqaddas makonlar hamda rivoyatlar bir talay. Islomiy ma'rifat darg'alari – shayxlar va aziz avliyolar makon topgan bu tabarruk manzillarda

ajdodlarimizning bugungi kun yoshlari ma'naviy kamoloti uchun asqotadigan benazir saboqlarini uchratish mumkin. Mamlakatimizda tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, qadamjolar anchagina. Ular islom dinidan avval, otashparastlik, buddaviylik aqidalari hukm surgan paytlarda ham bo'lgan. Ularning qoldiqlari tog'larda ko'p uchraydi. Islom dini yoyilgach, masjid va madrasalar, ulug' shayxlar dafn etilgan joylarga maqbaralar qurilgan. Ularni ziyorat qilish odat tusiga kirgan. Ba'zi rivoyatlarda islom dinida so'fi va darveshlar langar tashlash orqali joylashadigan yerlarini aniqlashgani, shuningdek, bu atama mo'g'ulcha lango'r – qabr, ya'ni eng katta avliyoning qabri yoki boshqacha ta'rifda musofirxona, xayr-ehson tarqatiladigan joy, aziz-avliyolar langar tashlagan makon ma'nolarini berishi aytiladi. Langar atamasi to'g'risida boshqa fikrlar ham mavjud. Ya'ni u tarixiy shaxs emas, joy nomi bilan bog'liq bo'lib, markaz, qal'a, qo'rg'on, bandargoh so'zlariga muqoyasa qilinadi. Aytishlaricha, ilgari har ikkala joydagi daryolar nihoyatda sersuv bo'lib, hatto kemalar qatnagan ekan. Langar qishloqlari esa kemalar to'xtaydigan, aniqrog'i, langar tashlanadigan joy bo'lgan.

Og'izdan-og'izga o'tib kelgan rivoyatlar va hujjatli ma'lumotlarga ko'ra, «Langar ota» atamasi islomiy darg'alardan biri – tasavvuf ta'limotining ishqiya tariqati shayxi Abulhasanga nisbat berib aytilgan. Aslida bu silsilaning boshida Abulhasanning to'rtinchi bobosi, Payg'ambarimiz (s.a.v.) choriyorlaridan hazrati Umar roziyollohu anhu, Sulton Vaysil Qoraynin hamda shayx Boyazid Bistomiylarturadi. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy o'zining «Nasoyimul-muhabbat» nomli asarida 770 mashoyix haqida ma'lumot keltirib, uning 628-bandida Abulhasan Ishqiy haqida shunday yozadi: «Shayx Abulhasan Ishqiy (sirlari muqaddas bo'lsin) Xorazmdandur. Shayx Boyazid Ishqiy Quddusi sirrihukim silsilasi sultonul-orifin Boyazid Bistomiy rahimollohuga yetar, anga tarbiyat qilgandir. O'z zamonida faqir ahlining muqtadosi erish, balki mashoyixning peshvosi. Murid va asxosi ko'p, karomat va maqomati andin ko'proq. Langar ota masjidi islom olami me'morchilik san'ati bilan mahalliy xalq hunarmandchilik uslublari uyg'unligida barpo etilgan. Bu me'moriy obidani Markaziy Osiyoda yagona desak mubolag'a bo'lmaydi. Masjid tomining balandligi, poydevoriga qo'yilgan toshlarning ulkanligi, ustun va yog'ochlarning quchoqqa sig'masligi uni o'ta mahobatli qilib ko'rsatadi. Yodgorlik uch qism – kichik masjid, katta masjid va ayvondan iborat bo'lib, umumiy maydoni yetti so'tix. Ular turli davrlarda qurilgan bo'lishiga qaramay me'moriy uslubi o'xshash, o'zarotutashib, yaxlitbinoshaklini olgan. Masjid devorining ichki tomoniga o'rta asrlar uslubida bezak berilgan, o'n ikkita derazasi, mehrob va minbari tepasiga namoz farzlari, oyatlar va Fotiha surasi bitilgan. Bundan tashqari, zarhal devor bo'ylab ikki xil yozuv: arabcha hamda

oddiy naqshga o'xshab ketadigan noma'lum yozuvlar muhrlangan. Yuqoridagisi qanday imloligi, bezakmi yo ramziy belgilarmi – ma'lum emas. Qizig'i shundaki, ular to'g'ri chiziqlardan hosil qilingan bo'lib, ko'pi svastika shaklidir. Bunday ramzlar qadimgi turkiy xalqlar buyumlarida, lavhalarda ko'p uchraydi. Jumladan, qo'ng'iroq va qutchi o'zbeklarining o'tovlariga yopilgan kigizlarda, g'ojari gilamlarida, qurlarida, bog'ish va tizmalarida aynan shunday naqshlarni ko'ramiz. Mutaxassislarning fikricha, bu bezaklar Ko'k turk podsholarining ishoralari, aniqrog'i davlat ramzlari ekan. Bu fikrni inkor etmagan holda ta'kidlash joizki, ular bezak yoki ramzlar bo'libgina qolmay, diniy, siyosiy aqidalar va qonun-qoidalarni anglatuvchi iboralar hamdir. Shundan ko'rinadiki, bu belgilar xuddi xitoy iyerogliflari kabi imlo vazifasini o'tagan. Zero, iyerogliflar ham alohida harf va tovushlarni emas, balki narsalarni, harakatni, tushunchalarni ifodalagan. XIV – XVI asrlarda bu hudud islom dini rivojiga katta hissa qo'shgan ilmiy markazlardan biriga aylanganini, bu yerga olis yurtlardan kelgan ilmga tashna kishilar tasavvuf allomalaridan saboq olishganini ko'rish mumkin. Shuningdek, 1889 yili Buxoro amirligining sharqiy hududlarida harbiy harakatlar olib borgan polkovnik Belyavskiy Langar qishlog'idagi tarixiy obidalar haqida yozib qoldirgan xotiralari, rus harbiy muhandisi Boris Kastalskiyning bu maskan haqidagi ilmiylikka yaqin fikrlari qimmatli. Bundan tashqari, rassom Boris Litvinov, arxeolog Sergey Kabanov va sharqshunos olim Mixail Masson Langar qishlog'ida joylashgan tarixiy obidalar, qadimiy yodgorliklar bilan tanishib, Langar shayxlarining hayotiga oid ko'plab ma'lumotlar to'playdi.

Ziyoratgohlar real manfaatlarni asos qilgan, ommaviy e'tiqodni ifoda etuvchi muqaddas joylar sifatida uzoq tarixiy jarayonlarda ma'naviy ozuqa beruvchi omillarni o'zida ifodalovchi maskan bo'lib, aholining maishiy turmushida o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Shuning uchun ham ziyoratgohlar uzoq yaqindan kelganlarning ziyorat qilishi va keng jamoat bilan birga uchrashish joyi, shuningdek, madaniyat maskani sifatida va insonlarga ruhiy quvvat berishda muhim o'rin tutadi.